

ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LTONNING BOY IJODIY MERO SI VA SHONLI HAYOT YO'LI

To'yumurodova Gullola Normurod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Shonazarova Nozima Ruslanovna

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Turdiyev Sog'lombek Rahmat o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon hayoti va ijodiga oid bir qancha ilmiy va ijodiy izlanishlar haqida so'z yuritilgan. Uning yozgan asarlari va jadidchilikka qo'shgan hissasi beqiyos. Asarlarida millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi yetakchilik qiladi. Mustaqillikdan so'ng Cho'lpon xotirasini abadiylashtirish bo'yicha olib borilgan islohotlar haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'z: “Sadoiy Turkiston”, kecha va kunduz, fevral inqilobi, federalizm, yorqin yulduz, publitsist, tarjimon, barmoq vazni

Annotation: *This article talks about a number of scientific and creative researches about the life and work of the poet, writer, dramatist, translator, critic and public figure Abduljahamid Suleiman son of Cholpan. His writings and contributions to modernism are incomparable. The spirit of nationalism and patriotism is leading in his works. After independence, the reforms carried out to perpetuate the memory of Cholpon are described in detail.*

Key words: “Sadoiy Turkiston”, “Kecha va kunduz”, February revolution, federalism, bright star, publicist, translator, finger weight

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandası Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov 1897-yili Andijonda tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. Keyin rus-tuzem maktabida o'qigan. 1914 yili Toshkentga keladi va o'z faoliyatini “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan bog'laydi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog'chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. 1916-1917 yillarda Orenburgda yashaydi va u yerda boshqird hukumi mahkamasida kotib bo'lib ishlaydi. So'ng Toshkentga qaytadi. 1920 yilgacha TurkRosTAda xizmat qiladi. 1920 yili Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. O'sha yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi va o'zbek tilida chiqadigan “Buxoro axbori” gazetasiga rahbarlik qiladi. Bir yilcha ishlab Toshkentga qaytadi. Adabiyot va madaniyat ishlari bilan shug'ullanadi. 1924-1926 yillarda Cho'lpon Moskvada yashaydi. U yerda ochilgan O'zbek dramstudiyasiga rahbarlik qiladi. Shundan keyin jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho'lponni ham chetlab o'tmadi. Ta'qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullandi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketadi va SSSR

Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo'lib ishlaydi. Cho'lpon 1937 yil 14 iyulda qamoqqa olinadi va 1938 yil 4 oktyabrdan otib o'ldiriladi. Cho'lponning "O'zbek yosh shoirlari" (1923), "Go'zal yozg'ichlar" (1925), "Adabiyot parchalari" (1926) majmularida chop etilgan she'rlari, o'z she'rlari asosida nashr qilingan "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926), "Soz" (1935) kabi to'plamlari yangi o'zbek she'iyati taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi. Uning "Kecha va kunduz" (1936) romani, "Do'xtur Muhammadyor" (1914), "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" hikoyalari yangi davr o'zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Cho'lponning "Yorqinoy" (1920), "Xalil farang" (1921), "Cho'rining isyonii" (1926), "Yana uylanaman" (1926), "Mushtumzo'r" (1928), "O'rtoq Qarshiboev" (1928), "Hujum" (1928) kabi dramalari uning dramaturg sifatida ham samarali ijod qilganligini ko'rsatadi. Milliy istiqlol va ozodlik g'oyalari Cho'lpon ijodining leytmotivini belgilaydi. Cho'lpon Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov" asarlarini, Gorkiyning "Ona" romani va "Egor Bulichev" pe'sasini, Lohutiyning "Evropa safari"ni, Gotsiyning "Malikai Turandot", Shekspirning "Hamlet" dramalarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali o'zbek va jahon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shdi. «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat Cho'lpon (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qila boshladi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o'z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo'shdi. Uning dastlabki asarlari «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» kabi mahalliy ro'znomalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan «Sho'ro» nomli oynomada ham nashr etiladi. Xususan, Cho'lponning «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Turkiston» hamda «Buxoro axbori» kabi ro'znomalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi. Federalistlarning fikrlariga ko'ra, Turkiston va Volga bo'yidagi turkiy xalqlar o'z muxtoriyat hukumatlarini barpo etganlaridagina bu hukumatlarning bolsheviklar tomonidan tan olinishi va birgalikda himoyalanishi mumkin edi. Muxtoriyat tugatilgach, Cho'lpon „Ilmiy kengash“, „Chig'atoy gurungi“, „Nashri maorif“ tashkilotlari va "Turon" teatrinda adabiy, ilmiy-ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Ayni paytda sho'ro davlatining mustamlakachilik siyosati oqibatlarini fosh etuvchi she'r va maqolalar yozish bilan istiqlol uchun kurashda davom etdi. Ammo respublika madaniyat xodimlarining 2-qurultoyi 1927-yildan keyin Cho'lponga qarshi boshlangan kurash uni siyosiy faoliyatdan uzoqlashishga, hatto 1931-1935-yillarda Moskvaga qochib borib, musofirlikda yashashga majbur etdi. 4-oktabrdan 5-oktabrga o'tar kechasi, hamma uxlagan vaqtida Fitrat, Abdulla Qodiriy, Otajon Hoshim kabi ziyorilar hozirgi Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan NKVD maxsus poligonida otib tashlangan. Ularning barchasi bitta chuqurga kafansiz, janozasiz maxfiy ravishda dafn etilgan. Jasadlar tezroq chirib ketishi uchun ustilaridan yo xlор sepishgan yoki tezak tashlashgan.

Cho'lponga o'q yetmay qolganidanmi yoki to'pponcha otilmaganidanmi, jallodlar uni o'sha kecha otmaslikka qaror qiladi. Ammo shoir "O'ldiringlar! Men senlarning

davlatingda, zamoningda yashashni istamayman! Senlarni ko'rgim yo'q", deb baqiradi. Shunda Cho'lponni bolta bilan chopib o'ldirishgan.

Har qanday chinakam iste'dod sohibi kabi Abdulhamid Cho'lpon ham ijodning deyarli hamma sohalarida samarali faoliyat ko'rsatgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publitsist bo'lishi bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o'ziga xos tarzda fikrلaydigan san'atshunos ham bo'lgan.

Uning badiiy asarlari xalq ma'naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o'ynagan bo'lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega. Ammo istibdod zamonida Cho'lpon ijodini o'rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish ta'qiqlangani uchun keng jamoatchilikkinha emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham Cho'lpon ijodining bu qirrasi to'g'risida g'oyat mavhum va tumanli tasavvurga ega edilar. Faqat so'nggi yillardagina Sh. Turdiev, N. Karimov, B. Do'stqoraev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Qur'onov, U. Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho'lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo'lib qolgan, jurnallar va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Surxondaryolik yosh cho'lponshunos N. Yo'ldoshev esa Cho'lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e'lon qilib, unda birinchi marta Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini berdi. Bibliografiyada ko'rsatilishicha, shoirning 1914—1937 yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekan. Izlanishlar davom ettirilsa, bu raqamning ko'payishi turgan gap. «Ash'ori nisvon» degan majmuuning muallifi Ibrohim Davron 1909 yildayoq «Turkiston viloyati gazetasi»da «Shoir nadur?» degan maqola e'lon qiladi. Yoki adabiyotshunos olim Begali Qosimovning ta'kidlashicha, 1914 yilda Mirmuhsin Shermuhamedov bilan Saidahmad Vasliy o'rtaida adabiyotning mohiyati, vazifalarn va jamiyat oldidagi burchi to'g'risida bahs-munozara bo'lgan. Qolaversa, bunday izlanish faqat turkistonlik ziyoililar o'rtasidagina sodir bo'lgan emas. Xuddi shu yillarda qo'shni Qozog'istonda ham, Ozarbayjon yohud tatarlar yurtlarida ham adabiyotning, mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlash harakati ancha avj olgan edi. Natijada, «adabiyot nadur?» degan mangu savolga turli mintaqalarda bir-biriga yaqin javoblar paydo bo'la boshlagan edi, Ozarbayjon adiblari Jalil Mamadqulizoda yohud Abdurahim Haqverdievlarning, tatar yozuvchilari Abdulla To'qay, yohud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalili bo'la oladi. O'z izlanishlari oqibatida ular naqadar bir-biriga yaqin xulosalarga kelganini ko'rsatish uchun bir konkret misolga murojaat qilaman: taniqli qozoq jurnalisti, ma'rifatparvar va demokrat M. Seralin o'zi muharrirlik qilgan «Ayqap» jurnalining 1922-yildagi 1-sonida yozadi: «Til va adabiyot xalqning qalbi va ruhidir... adabiyotsiz xalq zabonsiz boladay gap. Bunday bola boshqalarga o'zining dardu quvonchlarini gapirib berolmaydi. Xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan eng kuchli vosita til va adabiyotdir. O'z adabiyotining haqiqiy qadr-qimmatini bilgan xalqlarning farzandlarigina o'z tilini chinakam ardoqlay oladi. Qozoq xalqining o'z tili va o'z adabiyoti bor... bizning burchimiz unutilib yotgan ulkan xazinalarni yuzaga olib

chiqish va hammaning mulkiga aylantirishdir» Ha, to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir.

“Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'limg'an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo'lur» Cho'lpon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. T.: Xazina, 1994.
2. Karimov N. Cho'lpon. T.: Fan, 1991.
3. Cho'lponning badiiy olami (to'plam). T.: Fan, 1994.
4. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. T.: Adabiyot va san'at. 1991.
5. Cho'lpon. Adabiyot nadir. T.: Cho'lpon, 1994.